

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2023 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 3

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafojev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Ushenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Abdulhay Sobirov

O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar.....6

Marhabo Umurzoqova

Lisoniy shaxs tushunchasi va uning lingvistik talqini.....17

Sadagat Abbasova

Turli tillarda ma'nosiz ovoz almashish yo'nalishlari.....31

Adabiyotshunoslik

Sebahat Deniz

Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının
Gelişmesindeki Rolü.....43

Ilyos Ismoilov

Iskandarnomalarda yunon donishmandlari obrazi.....58

Nodira Xolikova

O'zbek jadid she'riyatida ayol obrazining ijtimoiy-estetik omillari
(Cho'lpon va Hamza ijodi misolida).....77

Fan. Ta'lim. Metodika

Vahobjon Nazarov

Fransuz tili darslarida multimedia vositalari: turlari va
texnologiyalari.....94

Sotsiologiya. Psixologiya

Komil Kalanov

O'zbek tilidagi duolarda muqaddaslik timsoli ifodasining
sotsiologik talqini.....108

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar sulolasining huquqiy maqomi.....132

CONTENT

Linguistics

Abdulhay Sobirov

Reflections on the Present and Future of the Uzbek Language.....6

Marhabo Umurzakava

The Concept of Linguistic Personality and its Linguistic Interpretation...17

Sadagat Abbasova

Directions of Voice Substitutions Without Meaning in
Different Languages.....31

Literature

Sebahat Deniz

The Role of the Great Turkish Khan Babur and his Generation
in the Development of Turkish Literature.....43

Ilyos Ismoilov

The image of Greek Sages in Iskandarnames.....58

Nodira Kholikova

Socio-Aesthetic Factors of the Female image in Uzbek Jadid Poetry
(using the example of poems Chulpan and Hamza).....77

Science. Education. Methodology

Vahobjon Nazarov

Multimedia tools in French Language Classes: Types and
Technologies.....94

Sociology. Psychology

Komil Kalanov

Sociological Interpretation of the Expression of the Symbol
of Holiness in Blessings in the Uzbek language.....108

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Legal Status of the Samanids Dynasty.....132

FAN. TA'LIM. METODIKA
SCIENCE. EDUCATION. METHODOLOGY

Fransuz tili darslarida multimedia vositalari: turlari va texnologiyalari

Vahobjon Nazarov¹

Abstrakt

Mazkur maqolada chet tili ta'limida multimedia ta'lim resurslaridan samarali foydalanishning afzalliklari haqida so'z boradi. Bunda o'quvchilarning nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish)larni rivojlantirishning xususiyatlari, multimedia vositalaridan chet tili ta'limida foydalanishning maqsadlari, chet tili ta'limida foydalaniladigan multimedia ta'lim resurslarining mazmuni va turlari tahliliy ma'lumotlar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanib, chet tili o'qitish metodlari va o'qitish vositalarini tanlash usullari haqida fikr yuritilgan. Fransuz tilini o'qitish jarayonida elektron ta'limiy vositalardan foydalanishning ma'lum ketma-ketlik tizimi asosida texnologik model tavsiya etildi. Namunaviy fransuz tili darsining texnologik xaritasi misolida multimedia ta'lim vositalaridan foydalanilganda tavsiya etiladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va o'qitish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *nutqiy kompetensiya, o'qitish metodlari, multimedia vositalari, ta'limiy (o'qitish) vositalar, texnik vositalar, ta'lim texnologiyalari, didaktik modeli, multimediali ta'lim resursi, ta'lim texnologiyasi.*

Kirish

Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar zamonaviy ta'lim texnologiyalari, dasturlashtirilgan vositalar, raqamlashtirilgan testlar va shu kabi noan'anaviy ta'lim vositalari o'quv mashg'ulotlari sifatini oshirishga xizmat qiladi. Globallashtirilgan hozirgi davrda ko'pgina fanlar kabi chet tili darslarida ham multimedia ta'lim vositalarini faol qo'llash samaradorlik omili bo'lib xizmat qilmoqda.

¹Nazarov Vahobjon Shamshiddinovich – o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: nvsh-1987@mail.ru

ORCID ID: 0009-0004-2128-7984

Iqtibos uchun: Nazarov, V.Sh. 2023. "Fransuz tili darslarida multimedia vositalari: turlari va texnologiyalari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 94 – 107.

Fransuz tilini o'qitish jarayonida multimedia ta'lim vositalaridan foydalanishning zaruriyati shundan iboratki, o'quvchilarning fransuz tilida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish bevosita multimedia vositalarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun fransuz tilida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishda autentik audiovizual materiallardan foydalaniladi, ya'ni o'quvchilarga audio va video materiallar qo'yib berilish orqali tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish va to'g'ri talaffuzni shakllantirish uchun fonetik ko'nikmalari ustida ishlanadi. Shuningdek, raqamlashtirilgan multimedia dasturlari orqali o'quvchilarda grammatik bilimlari va o'qib tushunish ko'nikmalarini mustahkamlash bo'yicha mashqlarni amalga oshirish mumkin.

Bunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning grammatik va fonetik bilimlarini mustahkamlash hamda tinglab va o'qib tushunish bo'yicha nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion metodikalardan foydalanish, shuningdek, AKT va multimedia texnologiyalarini samarali tatbiq etish kerakligi ta'kidlangan.

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish)larni rivojlantirishda o'quvchilar quyidagilarni amalga oshira oladi:

- nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda ta'lim oluvchilar o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi;

- rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi;

- nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi;

- mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi;

- so'zlarni to'g'ri yoza oladi;

- bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi;

- lug'at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasmlari diktant yoza oladi;

- gaplarni rasmlar tartibida ko'chira oladi.

Multimedia resurslari chet tili ta'limida uning foydalanish maqsadi va qo'llanish o'rnidan kelib chiqib ishlab chiqiladi. Shu bois multimedia vositalarini yaratishdan oldin ular ta'limda nima maqsadda va qay o'rinda foydalanishini aniq belgilab olish hamda shunga mos resurslarni yaratish lozim.

Ta'limdagi multimedia vositalari

Multimedia vositalarini bir qancha turlarga ajratish mumkin. Avvalo, ularni mazmuniga ko'ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- darsliklarning dasturlashtirilgan multimedia ilovasi;
- darsliklarning audio-video materiallari to'plami (CD-disk);
- internetdagi til o'rgatuvchi sayt-portallarining giperhavolali multimedia resurslari va interfaol mashqlar;
- televizion ko'rsatuv va radio eshittirishlarning, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi autentik audiovisual materiallari;
- animatsion dasturlar (audiovizual materiallar);
- animatsion (interfaol harakatlanuvchi) taqdimotlar;
- sun'iy intellekt yordamida dasturlashtirilgan multimedia resurslari;
- ijtimoiy tarmoqlardagi chet tili o'rgatishga qaratilgan audiovisual materiallar.

Bundan tashqari, ularni qo'llanish o'rniga ko'ra ham ikkiga ajratish mumkin:

- *dars jarayonida foydalaniladigan multimedia resurslari;*
- *darsdan tashqarida foydalaniladigan multimedia resurslari.*

Dars jarayonida foydalaniladigan multimedia resurslari. O'qituvchi fan yuzasidan maktabda dars davomida o'quvchiga bir-bir mavzuni o'rgatish, muayyan ko'nikmani hosil qilishda multimedia resurlardan foydalanadi.

Darsdan tashqarida foydalaniladigan multimedia resurslari. O'quvchi fan yuzasidan uyda bir-bir mavzuni o'rganish, muayyan ko'nikmani egallashda multimedia resurlardan mustaqil foydalanadi.

Har ikki o'rinda ham belgilangan instruksiyalarga asosanib foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu har ikkisi o'ziga xos ta'limiy shart-sharoitlarni talab etadi. Avvalo, dars jarayonida foydalaniladigan multimedia vositalari bilan bog'liq holatlarga to'xtalsak.

O'qitish metodlari o'qituvchining pedagogik va o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini uyg'unlashtiruvchi, hamkorligini ta'minlovchi faoliyat usuli sifatida qaraladi. U darslik, tarqatma va didaktik materiallardan tashqari ko'rgazmali vositalar bilan uzviy bog'langan hisoblanadi. Har qanday o'qitish metodi o'qitish mazmuni bilan uyg'unlashtirilgan o'quv vositalari yordamida pedagogik jarayon sifatida vujudga keladi. Shu bois ta'lim vositlaridan biri hisoblangan multimedia resurslari o'qitish maqsadi va metodikasi talabidan kelib chiqib foydalaniladi. Odatda, multimedia vositalaridan chet

tili ta'limida quyidagi maqsadlarda qo'llanadi:

- o'rgatish;
- mustahkamlash;
- baholash.

O'rgatish. Bunda o'quvchilar multimedia resurslar yordamida til materiallari (fonetik, leksik va grammatik material)ni o'rganadi va nutqiy ko'nikmalarni egallaydi.

Mustahkamlash. Bunda o'quvchilar multimedia resurslar yordamida o'rganilgan til materiallarini (fonetik, leksik va grammatik material) va egallangan nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi.

Baholash. Bunda multimedia resurslar yordamida o'quvchilar o'zlarining chet tilini bilish darajasini tekshiradilar.

Multimedia vositalari yordamida o'qitish metodlari va o'qitish vositalarini tanlash

Darslarni tashkil qilishda u yoki bu o'qitish metodidan foydalanish uchun birinchi o'rinda uning tasnifiy darajalarini va funksional vazifalarini tushunib olish talab etiladi. Shu ma'noda chet tili o'qitish metodikasini o'rganish bilan bog'liq adabiyotlarda o'qitishning bir necha metodlari tavsiya qilinadi.

Mazkur o'qitish metodlariga quyidagilar kiritilgan [Бабанский 1985, 208]:

1. O'qitishning og'zaki metodlari.
2. O'qitishning ko'rgazmali metodlari.
3. O'qitishning amaliy metodlari.
4. O'qitishning muammoli-izlanishli metodlari.
5. O'qitishning mantiqiy metodlari.
6. Mustaqil ishlash metodlari.
7. O'qitishda o'quvchi faoliyatini rag'batlantirish va asoslash metodlari.
8. O'qitish jarayonini va o'quvchining o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

O'qitish jarayonida ko'rgazmali metodlardan foydalanish, mavzuning mazmunidan kelib chiqib, obyekt va hodisalarni hissiy idrok etish, ularni taqqoslash, ularga xos xususiyatlarni o'zaro solishtirish, umumlashtirish va xulosalashda bir necha o'quv metodlari (og'zaki, amaliy, mantiqiy, muammoli) bilan o'zaro uyg'un holda foydalaniladi. Ya'ni dars davomida mavzuni o'rganish jarayonida ko'rgazmali vositalar og'zaki bayon etiladi, topshiriqlar

bajarish davomida esa amaliy metodlari bilan uyg'unlashadi. O'quv jarayonida muammoli vaziyatlardagi topshiriqlarni bajarish, o'z-o'zidan muammoli metodlarning mujassamlashishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, ko'rgazmali metodlar tarkibidagi tasviriy ko'rgazma, ekran vositalari, multimediali ilovalar, maxsus kompyuterlashtirilgan elektron ta'lim resurslarini namoyish qilish usullari ham mavjud. Uning vositasida chet tili ta'limiga mo'ljallangan o'quvchining yoshi va qabul qilish xususiyatlariga muvofiq tavsiya etilgan elektron darslik, elektron qo'llanma va boshqa tasviriy ko'rgazmali jihozlardan foydalanish dars mazmunini yoritish va o'quvchining refleksiv ko'nikmalarini hosil qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonining samardorligini oshirishda ta'limiy vositalar ham muhim ahamiyatga ega. Ularning quyidagi turlari ilmiy-metodik adabiyotlarda qayd etilgan [Guichon]:

- *an'anaviy verbal o'qitish vositalari* – darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, o'quv-uslubiy materiallar, ilmiy-ommabop asarlar, ilmiy-ommabop va ta'limiy lug'atlar, ilmiy-ommabop maqolalar;

- *raqamlashtirilgan verbal o'qitish vositalari* – elektron ta'limiy resurslar, multimedia resurslari, audio-videomateriallar, teleko'rsatuvlar, onlayn veb resurslar, onlayn veb portallar, onlayn lingvistik va ensklopedik lug'atlar, taqdimotlar (prezentatsiyalar), elektron rasm, grafika va jadvallar;

- *ko'rgazmali o'qitish vositalari* – lingvistik plakatlar, rangli qog'ozli rasm, jadval va grafikalar, turli xil o'yinchoq va narsa-buyumlar, portretlar va h.k.;

- *tabiiy muhitli o'qitish vositalari* – maxsus laboratoriyalar, mehmonxonalar, muzeylar, turistik maskanlar, oshxona-restoranlar, vokzallar, universitet hududi, shifoxonalar va h.k.

Mazkur ta'limiy vositalar fransuz tilini chet tili sifatida o'qishda o'ziga xos muhim vazifalarni bajaradi hamda darsni qiziqarli, tabiiy va samarali bo'lishiga yordam beradi. Shuni ham alohida ta'kidlashimiz kerakki, chet tili darslarida multimediali o'quv materiallaridan foydalanish maxsus shart-sharoitlarni taqozo etadi. Xususan, maxsus jihozlangan sinfxonada dars jarayoni olib borilishi lozim. Sinfxonada bir qator texnik vositalar bo'lishi shart. O'qitishda foydalaniladigan texnik vositalarni vazifasi va qo'llanish o'rniga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. *Eshitish uchun mo'ljallangan texnik vositalar* – magnitafon, radio qurilmalar, audiotasmalar, audiopleyerlar va h.k.

2. *Ko'rib tinglash uchun mo'ljallangan texnik vositalar* –

videoapparat, videotasmalar, televizorlar, smartfonlar, planshetlar, komyuterlar va h.k.

3. *Taqdimot uchun mo'ljallangan texnik vositalar* – proyektorlar, elektron doskalar.

4. *Interfaollik uchun mo'ljallangan texnik vositalar* – interaktiv va smart doskalar, kompyuter qurilmalari.

Ushbu texnik vositalar multimediali o'quv materiallarining mazmun-mohiyati va o'quvchilarda qaysi ko'nikmani (o'qish, tinglab tushunish, yozish, gapirish) rivojlantirishiga qarab o'rinli foydalaniladi [François 2003].


So'nggi yillarda fan va texnologiyalardagi yutuqlar bevosita ta'lim samaradorligini oshirishda keng qo'llanmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonida internet, televideniye, radio, kino sanoati mahsulotlari, gadjetlar, smartfonlar va boshqa vositalaridan faol foydalanilmoqda. Bu esa multimediali ta'lim texnologiyalarining ahamiyatini yaqqol namoyon etmoqda. Jumladan, mazkur texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning dars jarayonida diqqatini jamlashga, qiziqtirishga, mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarini tizimli rivojlanishiga olib kelmoqda. Bu jarayon bevosita xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga kirib kelishi bilan innovatsion metodikalarning rivojlanishiga turtki bo'ldi [Tomé 1999].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ko'pgina predmetlari uchun multimedia vositalari yaratilayotgan bo'lib, endilikda o'quv jarayonini raqamlashgan muhitida tashkil etishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. O'rgatuvchi-dasturiy vositalar hozirgi kunda ko'pgina fanlarni qamrab olmoqda. Shular qatorida, fransuz tili darslarini ham raqamlashgan dars muhitida tashkil etish uchun muayyan imkoniyatlar yaratilmoqda edi. Biroq multimedia vositalardan tizimli va o'rinli foydalanishning nazariy jihatlari yetarlicha tartiblashtirilmagan edi. Bu esa o'qituvchilar dars davomida turli audio, video mahsulotlaridan tartibsiz foydalaniishi, dars maqsadidan uzoqlashib ketishi, darsni faqat chet tilidagi kino va videoroliklarni o'quvchiga qo'yib berib o'tkazishi kabi holatlarini keltirib chiqardi. Natijada chet tili darslari o'zining mazmun-mohiyatidan uzoqlashishi, sifatning tushishiga olib keldi.

Dars jarayoni va multimediali ta'lim resurslari

Biz umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–9-sinflarida fransuz tilini o'qitishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladigan multimediali ta'lim resursidan foydalanishning didaktik modelini

ishlab chiqdik. Mazkur model asosida fransuz tilini chet tili sifatida o'qitish – dars jarayonida elektron ta'limiy vositalardan foydalanishning ma'lum ketma-ketlik tizimi asosida joriy etiladi.



1-model. Fransuz tili bo'yicha multimedia ta'lim resursidan foydalanishning didaktik modeli.

Dars jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiya elementlarini keng tatbiq etish zarur bo'lgan hozirgi davrda fransuz tili darslarining samaradorligini oshirish uchun yangi metodika-ni o'ziga xos o'zni mavjudligini e'tirof etish kerak. Yuqorida keltirilgan model asosida fransuz tili darslari quyidagi o'quv jarayoni elementlarini alohida hisobga olgan holda tashkil etiladi.

- *Dars* – o'tgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni o'rganish, o'rgangan mavzuni mustahkamlash, bilimlarni nazorat qilish, kompetensiya – nutqiy va lingvistik bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish, egallagan bilimlarni rivojlantirish, egallagan ko'nikmalarni didaktik amaliyotda qo'llash kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Dars natijasida o'quvchilarning intellektual salohiyati va bilim darajasi oshiriladi.

- *Darsdan tashqari mustaqil ishlash* – uyga vazifalar, mustaqil ishlash uchun qo'shimcha topshiriqlarni mustaqil bajarish hamda to'garak mashg'ulotlari orqali o'z bilimlarini yanada boyitish kabi

faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Darsdan tashqari mustaqil ishlash natijasida o'quvchilarda mustaqil maqsadli ishlash ko'nikmasi, izlanish va tadqiqotchilik kompetensiyasi rivojlanadi, shuningdek, bilim olishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi oshadi.

- *O'quv vositalari* – darslik, mashq daftari, elektron ta'lim resursi, lug'at, tarqatma material jamlanmasi, audio-videomateriallar kabi vositalarni o'z ichiga oladi. O'quv vositalari o'quvchilarning bilimlarni samaraliroq va sifatliroq tarzda o'zlashtirishiga imkon beradi. Shuningdek, o'quvchining o'quv vositalari bilan ishlash ko'nikmalar rivojlantiriladi hamda ulardan maqsadli va ongli tarzda ishlash kompetensiyasi shakllantiriladi.

- *Maqsad* – multimediali ta'lim resurslaridan samarali foydalanishning maqsadi 5-6-7-sinflarda fransuz tili darslarida linivistik va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat.

Shuningdek, chet tili o'qitishda multimediali ta'lim resurslaridan samarali foydalanish dars boshqichlari va turlariga ko'ra ham farqlidir. Shu bois dars jarayonini tashkil etishda quyidagi dars bosqichlarini farqlash hamda qo'llanish o'rnini inobatga olish lozim.

1. Dars bosqichlari – *boshlanish, asosiy qism, yakuniy qism.*
2. Foydalanish bosqichi – *darslikdan foydalanish bosqichi, elektron resursdan foydalanish bosqichi, doskadan foydalanish bosqichi.*
3. Nazorat bosqichi – *o'qituvchi tomonidan bilimni nazorat qilish, elektron resurs tomonidan bilimni nazorat qilish.*

Ushbu bosqichlarning mazmun-mohiyatini anglab, ularni farqlab, multimediali ta'lim resurslaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fransuz tili darslarida multimediali vositalaridan foydalanish o'qitish metodlari va pedagogik texnologiyalarga ko'ra ham farqlanadi. Ayniqsa, quyidagi zamonaviy ta'lim texnologiyalarida multimediali vositalaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

1. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi: *kichik guruhlarda ishlash.*
2. Muammoli ta'lim texnologiyasi: *muammoli vaziyat.*
3. Individual ta'lim texnologiyasi: *individual faoliyat.*
4. Interfaol ta'lim texnologiyasi: *klaster.*
5. Strategik ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, venn diagrammasi v.b.*

Umuman, fransuz tili ta'limi multimediali vositalaridan foydalangan holda tashkil etilsa, o'quvchilarning tayanch va fanga

oid kompetensiyalari shakllanadi, o'quv-ilmiy savodxonligi, intellektual salohiyati va o'qitish-o'rganish jarayoni sifati oshadi. Shuningdek, olingan bilimni faollashtirish, yangi mavzuni o'rganish, bilim, ko'nikma va malakani baholash va nazorat qilish, uyga vazifalarga tayyorlanish, qo'shimcha axborotlar olish kabi dars boshqichlarida uning samaradorligi namoyon bo'ladi.

Fransuz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda multimediali ta'lim resurslardan foydalanib, tashkil etiladigan 1 soatlik darsning *texnologik xaritasini* quyida taqdim etamiz:

Mavzu:

Darsning ta'limiy maqsadi: mavzusi bo'yicha o'quvchilarning nutqiy va lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirish

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarga vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur va kommunikativlik kompetensiyalarini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning o'zini-o'zi rivojlantiruvchi va ma'lumotlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish.

Dars tipi: yangi bilim berish

Darsda foydalaniladigan texnologiya: hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, juftliklarda ishlash metodi.

Darsni jihozlash: plakatlar, kompyuter, darslik, elektron axborot ta'lim resursi, mavzuga oid boshqa uslubiy materiallar.

Dars quyidagi bosqichlarga amalga qilgan holda tashkil etiladi:

I. Tashkiliy qism

II. O'tgan darsni mustahkamlash.

III. Yangi mavzu bayoni.

IV. Mavzuni mustahkamlash.

V. O'quvchilarni baholash.

VI. Uyga vazifa berish.

Mazkur dars bosqichlarda o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati quyidagicha bo'lishi lozim:

Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati

2.1-jadval

Texnologik bosqichlar	O'qituvchining faoliyati	O'quvchining faoliyati
1-bosqich. Tashkiliy qism. (2 daqiqa)	O'quvchilarning darsning mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtiriladi.	Dars mavzusi, maqsadi, borishi va unda bajariladigan topshiriqlarni anglaydi.

2-bosqich. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash. (8 daqiqa)	O'tgan mavzu yuzasidan tuzilgan kompyuterlashtirilgan test topshiriqlari yordamida o'quvchilarning bilimlarini nazorat qiladi va baholaydi.	O'tgan mavzu yuzasidan tuzilgan avtomatlashtirilgan test topshiriqlarini bajaradi.
3 - b o s q i c h . O'quvchilarning faoliyatini tashkil qilish.(2 daqiqa)	O'quv dasturining didaktik maqsadi, bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtiradi.	O'quv dasturining didaktik maqsadi, bajariladigan o'quv topshiriqlari yuzasidan ko'rsatmalarni anglaydi.
4-bosqich. Yangi mavzuni o'rganish. (15 daqiqa)	O'quvchilarning juftliklarda mustaqil ishlashini tashkil qiladi.	O'quvchilar bilan hamkorlikda o'zaro faoliyatini tashkil qiladi. O'quv dasturidan o'rin olgan topshiriqlarni mustaqil o'zlashtiradi.
5-bosqich. Guruhlar va juftliklar o'rtasida savol-javob, o'quv bahsi, munozara o'tkazish. (5 daqiqa)	O'quv dasturidan o'rin olgan topshiriqlarni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlaydi.	Kichik guruhlarda va juftliklarda ishlaydi, o'tkaziladigan savol-javob, o'quv bahsi. Munozarada faol ishtirok etadi.
6-bosqich. Erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash. (5 daqiqa)	O'rganilgan mavzu yuzasidan kompyuterlashtirilgan test topshiriqlar beriladi. Savollar va ma'lumotlar beriladi. O'quvchilarning faoliyatini tahlil qiladi va ijodiy ish topshiriqlarini beradi.	Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini belgilaydi.

Shu bilan birga, o'quvchining mustaqil fransuz tilni o'rganishida quyidagilarni hisobga olish lozim:

- mustaqil o'rganish faoliyatini tashkil etish;*
- maqsadni aniqlash;*
- bajaradigan vazifalarni aniqlash;*
- mustaqil ish bosqichlarini belgilash;*
- har bir bosqich bo'yicha o'quv materiallarning mavjudligini aniqlash;*
- mustaqil o'zlashtirish darajasini tekshirishni tashkil etish;*
- manbalar (darslik, elektron resurslar bilan ishlash) bilan ta'minlash.*

Ma'lumki, ta'limdagi multimedia ma'lumotlarning 70% dan ortig'ini ko'rish orqali, 30% dan kamini esa eshitish orqali idrok etiladi. Shuning uchun fanni o'zlashtirishda insonning ma'lumotlarni qabul qilish kanallarini bir-birga ulash imkonini beradigan multimedia vositalaridan unumli foydalanish lozim. Shuningdek, multimedia matn va grafik ma'lumotlar, video, audio, ovoz balandligini modellashtirish imkoniyatlari va interfaol vositalardan foydalanish ta'lim jarayoni ishtirokchilari uchun axborotga boy

immersion muhitni yaratish imkonini beradi. Axborotni taqdim etish, qabul qilish almashish usullarini o'zgartirdi.

Elektron o'quv materiallari vaqt va ishlash jihatdan ko'p afzalliklarga ega. Kompyuter va internet yordamida o'zgargan va rivojlanishda davom etayotgan ta'lim muhitlarida foydalaniladigan o'quv materiallar kompyuter vositalari bilan ta'lim berish shart-sharoitlarini paydo qilmoqda. Natijada ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy ta'limga nisbatan quyidagi afzalliklarni beradi:

- rangli grafika, animatsiya, tovush, gipermatnlardan foydalanish;

- doimiy yangilash;

- nashr qilish va ko'paytirish uchun kam xarajatlarga ega bo'lish;

- viktorinalar yoki interaktiv veb-elementlarni joylashtirish;

- kodiroyka qilish uchun qismlarni nusxalash va o'tkazish;

- giperhavolalarning ko'pligi tufayli adaptiv o'rganishga imkon berish;

- elektron kutubxonalarda yoki o'quv saytlarida qo'shimcha adabiyotlarga giperhavolalar o'rnatish.

Barcha axborot kanallari ichida vizual axborot berish eng kuchli hisoblanadi, shuning uchun multimediali ta'limda undan foydalanish ancha rivojlangan. Biroq bu boshqa ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini inkor etmaydi.

Multimedia vositalaridan foydalanish usullarini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

- multimedia taqdimotlaridan foydalangan holda darslar kompyuter sinflarida multimedia proyektorlari, rezident ma'lumotnomalar, avtomatlashtirilgan o'quv tizimlari, turli xil dasturlarning video yozuvlari va boshqalardan foydalangan holda o'tkaziladi;

- amaliy mashg'ulotlarda har bir ta'lim oluvchiga alohida kompyuter ajratilishi kerak, bunda uning sinf kodi va o'quvchining familiyasi ko'rsatilgan shaxsiy papkasini yaratish maqsadga muvofiqdir;

- individuallashtirilgan o'quv dasturlarini, ko'p bosqichli vazifalar bankini keng qo'llash kerak;

- darslarning ma'lum va muhim qismini o'yinlar shaklida tashkil etish samarali bo'ladi;

- til o'rgatish borasida loyihalar usuli keng qo'llanilishi kerak, uning doirasida izchillik va uzluksizlik tamoyillariga rioya qilinadi;

-dasturning asosiy bo'limlarini parallel va konsentrik o'rganish imkoniyati ta'minlanadi;

-muammoli o'qitish usulini kengroq qo'llash, o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan real dasturlar (hujjatlar, jadvallar, ma'lumotlar bazalari) ishlab chiqilishini ta'minlash zarur.

Multimedia vositalaridan foydalanish shakllarini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

- umumiy yoki individual foydalanish;
- o'quvchi yoki o'qituvchi tomonidan foydalanish;
- interfaol va interfaol bo'lmagan elementlar uchun foydalanish;
- dars davomida yoki darsdan tashqari foydalanish.

Xulosa

Fransuz tilini o'qitish jarayonida multimedia vositalaridan maqsadli foydalanish uchun, albatta, o'quvchilarning fransuz tilida fonetik, grammatik bilimlarini shakllantirishga yoki nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilganligiga alohida e'tibor qaratilishi talab etiladi. Bunda multimedia vositalaridan foydalanishda quyidagi savollarga javob bergan holda foydalanish usullari va texnologiyalarini aniqlab, dars jarayonini amalga oshirish tavsiya etiladi: qanday foydalaniladi, qachon foydalaniladi, nima uchun foydalaniladi va multimedia vositalarining qaysi turlaridan foydalaniladi.

